

## ARAB TILIDA JINS KATEGORIYASI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Arabshunoslik oliy maktabi*

***Omonullayeva Sohiba***

*Ilmiy rahbar: PhD Umarova Nodira Ismatovna.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada arab tilidagi jins kategoriyasining grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada arab tilida otlarning muzakkar va muannas jinslarga ajralishi, muannaslikning morfologik ko‘rsatkichlari, grammatik belgisiz muannas otlar, ma’noviy, lafziy va majoziy muannaslik hodisalari misollar asosida yoritildi va jins kategoriyasining sintaktik moslashuvdagi o‘rni – fe’l, sifat va olmoshlarda namoyon bo‘luvchi grammatik o‘zgarishlar ham maxsus o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari arab manbalarida jins kategoriyasi mavzusi o‘zbek tilidagi manbalarga nisbatan kengroq, chuqurroq hamda nazariy jihatdan batafsilroq bayon etilganligini ko‘rsatdi. Tadqiqot o‘zbek va arab tilshunoslik manbalari asosida olib borilgan bo‘lib, natijalar arab tilshunosligida jins kategoriyasi mavzusining nazariy jihatdan kengroq, chuqurroq va mukammalroq bayon etilganligini, xususan muannas turlarining tasnifi va istisnolari tizimining batafsil yoritilganligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Jins kategoriyasi, muzakkar, muannas, grammatik jins, ta marbuta, alif mamduda, alif maqsura, ma’noviy muannas, lafziy muannas, majoziy muannas, arab tili grammatikasi, morfologiya.

Tilshunoslikda jins kategoriyasi ko‘plab tillarning grammatik tizimida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, arab tilida jins kategoriyasi keng rivojlangan bo‘lib, u otlar, fe’llar, sifatlar va olmoshlarning grammatik shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Arab tilida so‘zlarning muzakkar va muannas shakllarga ajratilishi grammatik moslashuvning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli jins kategoriyasini o‘rganish arab tili grammatikasining muhim masalalaridan biri sanaladi. Ushbu maqolada arab tilidagi jins kategoriyasining nazariy asoslari, grammatik xususiyatlari va qo‘llanish holatlari tahlil qilinadi.

Otlarda jins kategoriyasi mavzusi “Arab tili grammatikasi” nomli 2024-yilda nashr qilingan Ne‘matullo Ibrohimov asarida quyidagicha tushuntiriladi. Arab tilida otlar ikki jinsga – muzakkar va muannasga ajraladi. Muannas jinsning grammatik belgisi so‘z oxiridagi -atun, -atu qo‘shimchasidir. U yozuvda ة (ta marbuta) harfi bilan ifodalanadi. M.: عُرْفَةٌ – xona, الْمَدِينَةُ – shahar, مَكْتَبَةٌ – kutubxona, الْقَرْيَةُ – qishloq. Shuningdek, اء – ā’u (alif mamduda) qo‘shimchasi bilan tugagan hamda ى – (alif maqsura) qo‘shimchasi bilan tugagan so‘zlar, agar ى -harfi o‘zak tarkibiga kirmasa, muannas so‘zlar hisoblanadi. M.: صَحْرَاءُ – sahro, ذِكْرَى – xotira, حُبْلَى – og‘iroyoq.

Boshqa tovush (harf) bilan tugagan soʻzlar muzakkar jins hisoblanadi. M.: كِتَابٌ – kitob, بَابٌ – eshik, سَفْفٌ – shift, بَيْتٌ – uy. Arab tilida yana shunday soʻzlar mavjudki, ularning jinsi grammatik belgiga emas, shu soʻzning mazmuniga qarab belgilanadi:

1. ة – ta marbuta harfi bilan tugagan soʻz erkak zotini bildirsa yoki erkak kishiga qoʻyilgan ism boʻlsa, bu soʻz muzakkar soʻz hisoblanadi. M.: خَلِيفَةٌ – xalifa, قَتَادَةٌ – Qatoda, حَمْرَةٌ – Hamza, طَلْحَةُ – Talha.

2. Muannaslik grammatik belgisi boʻlmagan quyidagi soʻzlar muannas hisoblanadi: a) ayol kishini yoki ayollarning ismini bildiruvchi soʻzlar. M.: أُمٌّ – ona, عَرُوسٌ – kelinchak, زَيْنَبٌ – Zaynab, بِنْتُ – qiz, سَعَادٌ – Suod, وَدَادٌ – Vudod. b) tanadagi juft aʼzolari bildiruvchi soʻzlar. M.: عَيْنٌ – koʻz, يَدٌ – qoʻl, أُذُنٌ – quloq, رَجُلٌ – oyoq. v) aniqlik artiklini olmaydigan va tanvin qoʻshimchasi bilan tugamaydigan geografik nomlar. M.: مِصْرٌ – Misr, بَصْرَةٌ – Basra, بَغْدَادٌ – Bagʻdod, طَرَابُلُسٌ – Tripoli. g) shamol, olov, urush, quyosh kabi soʻzlar: سَمُوْمٌ – shamol turi, نَارٌ – olov, حَرْبٌ – urush, شَمْسٌ – quyosh, أَرْضٌ – yer, بِنْدٌ – quduq. 3. Bundan tashqari ة – ta marbuta bilan tugamagan ayrim otlar har ikkala jinsda ishlatilishi mumkin. M.: فَرَسٌ – ot, كَبِدٌ – jigar, قَوْسٌ – yoy (qurol), مِلْحٌ – tuz. Arab tilida odamlarning kasb-hunari, mansabi, mavqeini, qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi qator muzakkar otlar borki, ularning oxiriga ة – ta marbuta harfini qoʻyish bilan shu soʻzlarning muannas variantlari hosil qilinadi. M.: goʻdak bola – طِفْلَةٌ → طِفْلٌ – goʻdak qiz oʻquvchi bola – تَلْمِيذَةٌ → تَلْمِيذٌ – oʻquvchi qiz talaba yigit – طَالِبَةٌ → طَالِبٌ – talaba qiz shoir – شَاعِرَةٌ → شَاعِرٌ – shoira togʻa – خَالَةٌ → خَالٌ – xola erkak injener – مُهَنْدِسَةٌ → مُهَنْدِسٌ – ayol injener erkak vrach – طَبِيبَةٌ → طَبِيبٌ – ayol vrach

Ushbu masala arab tilshunosligining klassik manbasi hisoblangan ناصف حفني (Hafniy Nosif va boshqalar) ning “النحوية الدروس” kitobi I va II jildlarida ham oʻz aksini topgan. Mazkur asar mavzuni oʻzbek manbalarga qaraganda nazariy jihatdan ancha toʻliq va mukammal tarzda yoritadi, xususan, muannas turlarining tasnifi, jins kategoriyasining sintaktik taʼsiri hamda istisnolar tizimi alohida batafsil bayon etilgan. Quyida ushbu asardan tegishli parchalar va ularning oʻzbekcha tarjimalari ham keltiriladi:

الْإِسْمُ أَفْسَامٌ

وَالْمَوْئَتْ الْمَذْكُرُ - ١

: قَسَمَيْنِ إِلَى يَنْقَسِمُ وَالْإِسْمُ

. وَحِصَانٌ ، وَجَمَلٌ ، عَلِيٌّ : نَحْوُ ؛ مُذَكَّرٌ - ١

. وَهَرَّةٌ ، وَنَاقَةٌ ، عَائِشَةُ : نَحْوُ ؛ وَمَوْئَتْ - ٢

وَأَمْرٌ ، وَمُضَارِعٌ ، مَاضٍ : أَنْوَاعٌ ثَلَاثَةٌ الْفِعْلُ وَأَنَّ ، وَحَرْفٌ ، وَاسْمٌ ، فِعْلٌ : أَنْوَاعٌ ثَلَاثَةٌ الْكَلِمَةُ أَنَّ عَلِمْتَ

: نَوْعَانِ الْإِسْمِ أَنَّ الْآنَ فَاعِلٌ ،

وَحِمَارٍ ، وَحِصَانٍ ، وَبَعْلٍ ، وَجَمَلٍ ، وَحُسَيْنٍ ، عَلِيٍّ : مِثْلُ ؛ ذَكَرَ عَلَى دَلِّ اسْمٍ كُلِّ : وَهُوَ ؛ مُذَكَّرٌ - ١ ،  
وَبَغْلَةٍ ، وَنَاقَةٍ ، وَعَزِيرَةٌ ، وَفَاطِمَةٌ ، عَائِشَةُ : مِثْلُ ؛ أَنْتَى عَلَى دَلِّ اسْمٍ كُلِّ : وَهُوَ ؛ وَمُؤَنَّثٌ - ٢ . وَهَرٍ  
وَهَرَّةٍ ، وَجِمَارَةٍ .

وَمُؤَنَّثٌ مُذَكَّرٌ إِلَى الْإِسْمِ تَفْسِيْمٌ - ٤

: إِلَى الْإِسْمِ يَنْفَسِمُ

١- مُذَكَّرٌ .

٢- وَمُؤَنَّثٌ .

. فَاضِلٍ : وَ ، رَجُلٍ : كَ ؛ ذَكَرَ عَلَى دَلِّ مَا : فَالْمُذَكَّرُ .

. فَاضِلَةٌ : وَ ، امْرَأَةٍ : كَ ؛ أَنْتَى عَلَى دَلِّ مَا : وَالْمُؤَنَّثُ .

: التَّائِيْبُ وَعَلَامَةٌ

١- . عَائِشَةُ : كَ ؛ مُتَحَرِّكَةٌ تَاءٌ .

٢- . سَلْمَى : كَ ؛ مَفْصُورَةٌ أَلِفٌ أَوْ .

٣- . حَسَنَاءٌ : كَ ؛ مَمْدُودَةٌ أَلِفٌ أَوْ .

. مَرِيْمٌ : وَ ، زَيْنَبٌ : كَ ؛ « مَعْنُوِيًا مُؤَنَّثًا » فَيَسْمَى ، الْعَلَامَةُ مِنَ الْحَقِيْقِي الْمُؤَنَّثِ يَخْلُو وَقَدْ

. زَكَرِيَاءٌ : وَ ، حَمْرَةٌ : كَ ؛ « لَفْظِيًا مُؤَنَّثًا » فَيَسْمَى ، الْمُدَكَّرُ فِي الْعَلَامَةِ تُوْجِدُ وَقَدْ

: وَ ، الشَّمْسُ : كَ ؛ « مَجَازِيَّةً مُؤَنَّثَاتٍ » فَتَسْمَى ، الْحَقِيْقِيَّةُ الْمُؤَنَّثَاتِ مُعَامَلَةُ الْأَسْمَاءِ بَعْضُ تَعَامُلٍ وَقَدْ

الْحَرْبِ

. النَّقْلُ عَلَى هَذَا فِي وَالْمَدَارِ

. عَلَامَةٌ : كَ ؛ وَلِتَأْكِيْدِهَا ، رَاوِيَةٌ : كَ ؛ وَلِلْمُبَالَغَةِ ، عِنْبَةٌ : كَ ؛ لِلْوَحْدَةِ تَكُونُ ، لِلتَّائِيْبِ التَّاءُ تَكُونُ وَكَمَا

“Durussun Nahviyya” asarida ismlar muzakkar va muannasga bo‘linishi shunday bayon etilgan: ism ikki turga ajraladi – 1) muzakkar: erkak zotini anglatuvchi har qanday ism (masalan: Ali, Husayn, tuya (erkak), ot (erkak)); 2) muannas: ayol zotini anglatuvchi har qanday ism (masalan: Oysha, Fotima, tuya (urg‘ochi), mushuk (urg‘ochi)). Muannaslikning uch belgisi bor: harakatli ta’ (masalan: Oysha), alif maqsura (masalan: Salmo), alif mamduda (masalan: Hasno). Haqiqiy muannas ba‘zan belgisiz bo‘lib, bunday ismlar “ma‘noviy muannas” deyiladi (masalan: Zaynab, Maryam). Belgisi bor, ammo erkak zotini anglatuvchi ismlar “lafziy muannas” deyiladi (masalan: Hamza, Zakariyyo). Ba‘zi ismlar, asosan an‘anaga ko‘ra, haqiqiy muannas kabi qo‘llanib, “majoziy muannas” deyiladi (masalan: quyosh – ash-shams, urush – al-harb). Ta’ harfi nafaqat muannaslikni, balki birlik ma‘nosini (masalan: inaba – bitta uzum donasi), mubolag‘ani (masalan: roviya – katta roviy) va ta‘kidni (masalan: alloma) ifodalash uchun ham ishlatiladi. Demak, ushbu manbada asosiy e‘tibor muannas turlarini batafsil tasniflash va ularning istisnolarini ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, bu jihati mazkur asarni o‘zbek tilidagi manbalardan ilmiy jihatdan mukammalroq qiladi.

Mazkur masala B.Z. Xolidovning “Mabādi’ al-lug‘at al-arabiyya” (“Arab tilining asoslari”) asarida ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, quyida ushbu manbadan tegishli sharh keltiriladi: Arab tilida ikkita grammatik jins mavjud: muzakkar (erkak)

va muannas (ayol). Muannas jinsining asosiy morfologik ko‘rsatkichi ة (ة) (ta marbuta) qo‘shimchasidir. Bundan tashqari, muannas jinsining yana ikkita qo‘shimchasi bor: uncha ko‘p uchramaydigan اء (-ā‘u) va اى (-ā), bular nisbatan kam qo‘llaniladi. Misollar: جَرِيدَةٌ – jarīdatun – gazeta, صَحْرَاءُ – sahrā‘u – sahro, cho‘l, بُشْرَى – bushrā – xushxabar, quvonchli xabar. Ayol jinsidagi shaxslarni va urg‘ochi hayvonlarni bildiruvchi ismlar, ularning tugallanishi (qo‘shimchasi) qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, har doim muannas jinsiga kiradi. Demak, nafaqat امْرَأَةٌ ‘imra‘atun – ayol, حُبْلَى hublā – homilador, نَاقَةٌ nāqatun – urg‘ochi tuya va shunga o‘xshash so‘zlar, balki tarkibida muannaslik belgisi bo‘lmagan عَرُوسٌ ‘arūsun – kelin, اُمٌّ ‘ummun – ona, اُخْتُ ‘uhtun – opa/singil kabi so‘zlar ham muannas jinsidagi ismlar hisoblanadi. Hech qanday tashqi (morfologik) belgisiz muannas jinsiga quyidagi ismlar ham kiradi: a) Shahar, qishloq, mamlakat va xalqlarning nomlari. Masalan: بَغْدَادُ – bagdādu – Bog‘dod, مِصْرُ – misru – Misr, الرُّوسُ – ‘ar-rūsu – ruslar va h.k. b) Tananing juft a‘zolarining nomlari: يَدٌ – yadun – qo‘l, رِجْلٌ – rijlun – oyoq va h.k. v) Shamol, olov, urush, quyosh va ba‘zi boshqa narsalarning nomlari; masalan: نَارٌ – nārun – olov, رِيحٌ – rīhun – shamol, حَرْبٌ – harbun – urush, شَمْسٌ – shamsun – quyosh, دَارٌ – dārun – uy, hovli va h.k. Qolgan barcha ismlar, qoida tariqasida, muzakkar (erkak) jinsiga kiradi. Masalan: كِتَابٌ – kitābun – kitob, بَيْتٌ – baytun – uy. Lekin shunday ismlar ham borki, ular umumiy jinsga ega bo‘lib, muzakkar jinsida ham, muannas jinsida ham qo‘llanilishi mumkin. Masalan: حَالٌ – hālun – holat, ahvol, سُوقٌ – sūqun – bozor. Oxiri ة (ta marbuta) bilan tugaydigan, ammo خَلِيفَةٌ halīfatun – o‘rinbosar, xalifa kabi erkak jinsidagi shaxslarni bildiruvchi ba‘zi ismlar muzakkar jinsiga tegishli bo‘ladi (chunki ular erkak jinsidagi shaxslarni anglatadi).

A.Abdujabborovning “Arab tili” nomli kitobida ham jins kategoriyasi mavzusi quyidagicha yoritilgan; Arab tilida ikki grammatik jins bor: muzakkar – المذَكَّرُ – mujskoy rod va muannas – المَوْنَتُ – jenskiy rod. Erkak zotini bildirgan otlarning hammasi so‘zning shaklidan qat‘iy nazar, muzakkar jinsiga kiradi. Masalan: أَبٌ – ota; أَخٌ – birodar, aka yoki uka; عَالِمَةٌ – buyuk olim; دِيكٌ – xo‘roz; كَيْسٌ – qo‘chqor. Ayol (urg‘ochi) zotini anglatgan otlarning hammasi muannas jinsiga kiradi. Masalan: اُمٌّ – ona; اُخْتُ – opa yoki singil; عَرُوسٌ – kelinchak; زَيْنَبٌ – Zaynab; خَالَةٌ – xola; بَقْرَةٌ – sigir. Yana muannas jinsiga quyidagilar kiradi: 1) tananing juft a‘zolari, masalan: يَدٌ – qo‘l, رِجْلٌ – oyoq, عَيْنٌ – ko‘z, أُذُنٌ – quloq; 2) geografik nomlar, masalan: طَشَقَنْدُ – Toshkent, مِصْرُ – Misr, مُوسْكُو – Moskva, النَّيْلُ – Nil (daryosi); 3) el-elatlarning nomlari, masalan: الأوزبَكُ – o‘zbeklar, o‘zbek xalqi, العَرَبُ – arablar, arab xalqi, الرُّوسُ – ruslar, rus xalqi; 4) oxirida «ة» (ta marbuta) qo‘shimchasi bo‘lib, erkak zotini bildirmaydigan ismlar. Masalan: جَدَّةٌ – buvi, خَالَةٌ – xola, مَدِينَةٌ – shahar, قَرْيَةٌ – qishloq. Bu qo‘shimcha sifat, sifatdosh, tartib sonlarning muannas jinsi shaklini yasash uchun ham ishlatiladi. Masalan: yaxshi – حَسَنٌ (muz.) → حَسَنَةٌ (muan.) chiroyli – جَمِيلٌ (muz.) → جَمِيلَةٌ (muan.) o‘qituvchi – مُدْرَسٌ (muz.) → مُدْرَسَةٌ (muan.) to‘rtinchi – رَابِعٌ (muz.) → رَابِعَةٌ (muan.);

5) «فَعْلَى» va «فَعْلَاءُ», «فَعْلَى» vaznlaridagi sifatlar, masalan: حَمْرَاءُ – qizil, عَوْجَاءُ – qiyshiq, كَسْنَى – dangasa, كُبْرَى – ulug‘, عَظْمَى – buyuk; 6) ayrim so‘zlar an’anaga ko‘ra muannas jinsida hisoblanadi. Ular, jumladan, quyidagilar: أَرْضٌ – er, شَمْسٌ – quyosh, بَيْتٌ – quduq, جَنَنْمٌ – do‘zah, عَصَا – tayoq. «فَعُولٌ» vaznidagi va o‘timli fe‘llardan yasalgan «فَعِيلٌ» vaznidagi sifatlar har ikkala jins uchun bir xil bo‘ladi. Masalan: جَسُورٌ – jasur (erkak, ayol); عَجُورٌ – qari (chol, kampir); حَرِيحٌ – yaralangan (erkak, ayol); قَتِيلٌ – o‘ldirilgan (erkak, ayol). Bir turkum otlar muzakkarda ham, muannasda ham hisoblanishlari mumkin. Masalan: طَرِيقٌ – yo‘l, سَمَاءٌ – osmon, حَالٌ – xol, ahvol, سُوْقٌ – bozor, حَمْرٌ – sharob.

Ne‘matullo Ibrohimov, B.Z. Xolidov, A. Abdujabborov hamda «النحوية الدروس» manbalari qiyosiy o‘rganilganda, barcha mualliflar arab tilida jins kategoriyasi ikki asosiy guruh — muzakkar va muannasdan iborat ekanligini e’tirof etishlari kuzatildi. Barcha manbalarda muannaslikning asosiy grammatik belgilari sifatida ة (ta marbuta), ي (alif maqsura) va اء (alif mamduda) ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, grammatik ko‘rsatkichsiz qo‘llanuvchi ayrim muannas otlar — ayol ismlari, juft tana a‘zolari, geografik nomlar va ayrim tabiat hodisalari misollar orqali izohlangan.

Ammo manbalar o‘rtasida mavzuni yoritish uslubida ayrim farqlar ham mavjud. Ne‘matullo Ibrohimov asarida jins kategoriyasi grammatik jihatdan sodda, tizimli va o‘quvchi uchun tushunarli tarzda bayon etilgan bo‘lsa, B.Z. Xolidov asarida semantik jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan. A. Abdujabborovning kitobida esa jins kategoriyasi mavzusi boshqa manbalarga nisbatan kengroq misollar bilan yoritilgan hamda sifat, sifatdosh va sonlarning jinsga ko‘ra shakllanishi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Arab manbasi hisoblangan «النحوية الدروس» ning «وأخرون ناصف حفني» kitobida esa mavzu yanada chuqurroq nazariy asosda tushuntirilganligi kuzatildi. Ayniqsa, muannas ma’naviy (معنوي مؤنث), lafziy muannas (لفظي مؤنث) hamda majoziy muannas (مجازي مؤنث) tushunchalarining alohida ajratib ko‘rsatilishi mazkur manbaning ilmiy jihatdan mukammalroq ekanligini namoyon qiladi. Shuningdek, kitobda jins kategoriyasining sintaktik ta’siri, ya’ni fe‘l, olmosh va ko‘rsatish olmoshlaridagi moslashuv masalasi ham izohlangan.

Arab tili flektiv til sifatida o‘ziga xos murakkab grammatik struktura va rivojlangan jins kategoriyasiga ega. Erkak va ayol jinslarining shakllanishi, ularning morfologik ko‘rsatkichlari va sintaktik moslashuvi arab tilining tipologik xususiyatlarini belgilaydi. Jins kategoriyasi tillar grammatik tizimida turlicha namoyon bo‘lib, uni barcha tillar uchun umumiy hodisa deb bo‘lmaydi shuningdek, barcha tillarda ham uchrayvermaydigan bu kategoriya arab tilida otlar, fe‘llar, sifatlar va olmoshlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek tilidan farqli ravishda arab tilida grammatik jins kategoriyasi morfologik va sintaktik jihatdan tizimli ravishda ifodalanadi. Tadqiqot natijasida arab tilida otlar muzakkar مذكر va muannas

مؤنث jinsiga ajratilishi va ularning o'rtasidagi morfologik farqlar tahlil qilindi hamda asosiy xulosa sifatida arab manbalarida jins kategoriyasi nazariy jihatdan yanada to'liqroq va mukammal tarzda bayon etilganligi aniqlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. 1-jild. Toshkent, 2024.
2. القاهرة، النحوية الدروس. وآخرين ناصف حفي 2009
3. Xalidov B.Z. Учебник арабского языка. Toshkent, 2007.
4. Abdujabborov A. Arab tili. Toshkent, 2005.